

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

HIND ANTROPONIMLARINING LEKSIKOLOGIK TAHLILI

(Hindu ismlari misolida)

Bajardi: Janubiy Osiyo tillari kafedrası
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Xolmirzayeva Zumrad Farxatovna

Ilmiy rahbar: Janubiy Osiyo tillari
kafedrası katta o'qituvchisi Rahmatov B.R

Ilmiy maslahatchi: dot.Begizova X.B

Toshkent-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi:

Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo
tillari fakulteti dekani v.b.,
f.f.n., dotsent,
Nosirova S.A

«__» _____ 2012 yil

Janubiy Osiyo tillari kafedrası
mudiri v.b., f.f.n
Nurmatov S.S

«__» _____ 2012 yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-8
--------------------	------------

ASOSIY QISM

I BOB.

Antroponimika onomastikaning tarkibiy qismi sifatida.....	9-18
---	------

II BOB.Hind antroponimlarining leksikologik tahlili

2.1. Hind antroponimlarining etimologik tahlili.....	19-22
2.2. Hind teofor antroponimlarining strukturaviy tahlili.....	23-28
2.3. Hind antroponimlarining tematik tahlili.....	29-39

XULOSA.....	40-41
--------------------	--------------

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	42-44
----------------------------------	--------------

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z oldiga buyuk davlat qurish yo'lini tanlagan ekan, bu yo'lda eng avvalo har tomonlama yetuk, barkamol, vatanparvar avlodga tayanadi. Shunday avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish vatanimizning o'z oldiga qo'ygan ustuvor masalalaridan biriga aylangan. Istiqlool yillarida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor keng tus oldi. Endilikda yoshlarning ta'lim olishi, o'z ustida ishlashi, ilm borasida yuksak marallarga yetishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa yosh avlodning chet tillarini o'zlashtirishi, boshqa xalqlar, millatlar tili, madaniyati, urf-odatlaridan boxabar bo'lishi, shuningdek, o'z Ona Vatani O'zbekiston degan ulug' nomni jahonga yoyishi borasida katta ishlar olib borilmoqda. Shu haqida muhtaram yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqlarida shunday fikr yuritadilar:

"Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan horijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz".¹

Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng Hindiston va O'zbekiston xalqlarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy, iqtisodiy hayoti borasida ilmiy tadqiqotlar

¹I.A.Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan. "Vatanparvar" gazetasi №8(2447), T., 2012

olib borishga katta imkoniyatlar tug'ildi. Shu imkoniyatlardan foydalangan holda tilshunoslik sohasida ham qator izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonning muhim tomoni shundaki, u har ikki mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtiradi va ular o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ta'kidlash joizki, garchi hindiy tilining o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, lekin hind antroponimlari o'zbek hindshunosligida hali maxsus o'rganilmagan.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, hind antroponimlarining o'ziga xos jihatlari ilmiy tadbiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish hind antroponimikasi, uning o'ziga xos xususiyatlarini, antroponimlarning mazmun-mohiyati, tarkibini, kelib chiqishini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan.

Biz to'plagan ma'lumotlarga ko'ra antroponimika muammolari bilan shug'ullanuvchi mutahassislarning aksariyat qismi rus olimlari bo'lib, ular orasida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: P. Florenskiy ("Имена"), A. B. Superanskaya ("Общая теория имени собственного"), V. A. Nikonov ("Личное имя социальный знак"), A. F. Uspenskiy ("Ты и твоё имя"), 20-asr oxirlariga kelib esa N. V. Podolskiy, N. V. Frolova, Yu. A. Karpenko, I. A. Koroleva, V. A. Nikonova va boshqalar.

Jumladan A. V. Florenskiy 16 rus ismlarini (Aleksandr, Aleksandra, Aleksey, Anna, Vladimir, Olga, Vasiliy, Sofiya, Nikolay, Yekaterina, Pavel, Konstantin, Mixail, Elena, Vera, Lyudmila) tarixiy, adabiy va metafizik nuqtai nazardan o'rganib chiqqan.¹

¹ А. В. Флоренский "Имена" М., 1978

Shu bilan birga rus olimlaridan A.N.Zubkovning "Общие вопросы индийской антропонимики" nomli ma'ruzasida hind antroponimlarining strukturasi, ma'nolari, ayollar va erkaklarga xos ismlar bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud.

A.V.Superanskaya esa o'z navbatida atoqli otlarni fonologik, morfologik jihatdan tahlil qilib o'rgangan.

Yevropada antroponimika sohasida Smith E.C ("The story of our names")(1956), Katz Y.A. ("A proper theory of names" 1977), Franson G.O. ("Middle English surnames of occupation"), Donnelan K.M. ko'plab tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbek antroponimikasiga esa Gafurov O. ("Osma ul-husni, yohud tabarruf ismlar") Korayev, Rahimov, G.X.Sattorov, Rizaev, Mirzayev ("Yaxshi ism – insonga husn"), E.A.Begmatovlar izlanishlar olib borganlar.

E.A.Begmatov o'zining "O'zbek ismlari" izohli lug'atida 14600dan ziyod o'zbek ismlarini tahlil qilgan va ularning ma'nolariga izoh bergan.

Hind antroponimikasi bilan bog'liq ayrim muammolarning ayrim jihatlari hind olimlari tomonidan ham yoritilgan. Jumladan, D.D.Sharma ("The Panorama of Indian Antroponomy" 2008), Maneka Ghandi ("The book of Hindu Names" 1993), R.R.Mehrotra ("The book of Indian Names" 1994), N.D.Rupa ("Hindi Personal Names and Nicknames" 1994) kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ulardan D.D.Sharmaning "The Panorama of Indian Anthroponomy" asarida hamda M.Gandhining "The Book of Hindu Names" asarlarida hindu antroponimlari ularning hususiyatlari, ma'nolari, tuzilishi kabi mavzular mukammal o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Bizda mavjud bo'lgan manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, o'zbek hindshunosligida hind antroponimlari to'g'risida ayrim umumiy ma'lumotlar uchrasada, ushbu masala bilan bog'liq maxsus tadqiqotlar olib

borilmagan,shu bois ham aynan shu mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarni chuqurroq o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

Ushbu malakaviy ishni yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad-hind antroponimlarining o'ziga xos hususiyatlarini leksikologik jihatdan tahlil qilish va ularni tegishli tasniflarga ajratib o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Mazkur malakaviy ish tadqiqotining vazifalari quyidagicha:

- 1) Hindiy tilidagi antroponimlarni manbalar asosida to'plash;
- 2) To'plangan misollarni kartochkalarda aks ettirish;
- 3) Antroponimlarga oid ilmiy-nazariy asarlarni o'rganish;
- 4) To'plangan antroponimlarning tematik tahlilini amalga oshirish;
- 5) Antroponimlarning etimologiyasini aniqlash;
- 6) To'plangan antroponimlarning struktur tahlilini amalga oshirish;
- 7) Hind antroponimlarining tematik,etimologik,struktur tahlili natijalariga ko'ra yakuniy xulosalar berish;

Bitiruv malakaviy ishning manbai:

Bitiruv malakaviy ishi uchun tayanch manba sifatida hind olimi D.D.Sharmaning "Panorama of Indian Anthoroponomy" asari tanlab olindi. Bu asarda D.Sharma hind ismlarining tarixiy, ijtimoiy-madaniy va tilshunoslik nuqtai nazaridan ma'lumotlar bergan.Undan tashqari nazariy masalalar bo'yicha manba sifatida A.V.Superanskayaning"Общая теория имени собственного" asari hamda A.N.Zubkovning "Общие вопросы индийской антропонимики" maqolasiga tayanildi.

Tadqiqot metodi.

To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu mavzu tavsifiy metod asosida o'rganildi. Faktik materiallarning tahlili sinxron sathda olib borildi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti.

Ishning ob'yekti sifatida turli xil manbalardan antroponimlar tanlab olindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.

Ishda ilk marotaba o'zbek hindshunosligida hind antroponimlarining ayrim xususiyatlari atroflicha o'rganildi. Antroponimlarning leksikologik xususiyatlari etimologik, struktur, tematik jihatdan tahlil qilindi.

Mazkur ish nafaqat hind tilshunosligi uchun balki umumiy tilshunoslik bo'yicha ham yangi ilmiy izlanishlar yozilishida amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi.

Natijalarning joriy qilinishi.

Mazkur ilmiy ish natijalari bo'yicha hindshunoslikka bag'ishlangan anjumanlarda shu jumladan Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Janubiy Osiyo tillari kafedrasi tomonidan tashkil etilgan "Yosh hindshunoslar ilmiy anjumani"da, hamda har yili kafedra tomonidan o'tkazilib kelinadigan "Talabalar ilmiy jamiyati"da ham mavzu yuzasidan ma'ruzalar qilingan (2010, 2011 yilning mart oylari davomida).

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi 3 qismdan iborat: kirish, asosiy qism, xulosa hamda adabiyotlar ro'yhati.

Birinchi bobda tilshunoslikning "onomastika" bo'limi, uning tarkibiy qismlari, "antroponimika", uning xususiyatlari, onomastikada tutgan

o'rni, shuningdek antroponimikaning ob'yekti bo'lmish insonlarning ismlari va ularning jamiyatdagi o'rni tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy manbalar asosida atroflicha o'rganildi.

Ikkinchi bobda hind antroponimlari leksikologik jihatdan ya'ni etimologik, tematik hamda strukturaviy tahlillari amalga oshirilgan.

So'nggi bobda esa olib borilgan izlanishlarning natijalariga ko'ra yakuniy xulosalar yoritildi.

I BOB. Antroponimika onomastikaning tarkibiy qismi sifatida

Onomastika-tilshunoslikning atoqli otlar,ularning hususiyatlari,kelib chiqishi,tarixi,shuningdek uzoq vaqt qo'llanishi jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlarini hamda boshqa tillarning ularga bo'lgan ta'sirini o'rganuvchi tilshunoslikning mustaqil bo'limidir.Tilshunoslik ko'lamida onomastika o'z navbatida tarixiy,geografik,etnografik,ijtimoiy,madaniy hamda adabiy ahamiyatni o'zida aks ettiradi.¹

Turli davrlarda insonlarda ular yashab turgan atrof muhitdagi narsa buyumlarga,joylarga,jonzotlarga hamda insonlarga,ularni farqlay olish,bir birlaridan ajrata olish maqsadida alohida ism berish ehtiyoji tug'ilgan.

Ko'pgina onomast olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar jarayonida, atoqli otlar mazmun mohiyatiga ko'ra turli xil guruhlariga bo'linib klassifikatsiya qilinishi natijasida onomastikaning ichida bir necha mustaqil bo'limlar paydo bo'ldi.G'arb olimlaridan F.Mikloshich (1865,1872,1874), P.Skok (1921),E.Muka (1925-1926), K.Moshinskiy (1939),S.Rospond (1957), V.N.Toporov (1963), S.A.Kosporskiy (1965), A.V.Nikitin (1967),Rubsov (1970) kabi olimlar aynan manashu masalalar bo'yicha izlanishlar olib borib, turli xil klassifikatsiyalarni taklif etganlar.²

Shu jumladan onomast olimlardan A.Bax mavjud bo'lgan barcha atoqli otlarni, ular bildirgan obyektlariga muvofiq tarzda quyidagicha klassifikatsiya qilgan:

1. Tirik jonzodlarning nomlari.
2. Zamon va makon , harakat vositalari, tasviriy san`at asarlari, astrogeografik va kosmik obyektlarning nomlanishi bildirilgan buyum nomlari.

¹ www.filologia.ru

². A.B.Суперанская "Общая теория имени собственного" М.,1973.,148-160 betlar

3. Jamoa muassasalari nomlari.

4. Harakat nomlari: Raqs, o`yin.

5. Fikr, g`oyalar nomlari: adabiy asarlar, harbiy va boshqa rejalar.

6. Musiqiy kuy va asarlar nomlanishlari.¹

Onomastikaga beqiyos hissa qo`shgan mashhur rus olimasi A.V.Superanskaya o`zining tasnifidan kelib chiqqan holda, atoqli otlarni quyidagi guruhlariga bo`lib o`rganish kerakligini ta`kidlaydi:

№	Ob'yektlar	Turdosh otlar		Atoqli otlar
		Maishiy so'zlar	Ilmiy atamalar	
1.	<i>Odamlar</i>	<i>odamlarni turli hususiyatlariga ko'ra atash</i>	<i>antroponimik, etnografik, biologik,ijtimoiy</i>	<i>antroponimlar</i>
2.	Hayvonlar	hayvonlarning milliy nomlari	biologik,zoologik	zoonimlar
3.	o'simliklar	o'simliklarning milliy nomlari	botanik	fitonimlar
4.	geografik ob'yektlar	umum e'tirof etilgan relief shakllari,suv havzalari,aholi va b.k	geografik, geologik, topografik, gidrologik	toponimlar (oronimlar,gidroni mlar,oykonimlar, urbanonimlar


¹ .”Общая теория имени собственного” А.В.Суперанская М.1973.,173 bet

5.	tabiat hodisalari	tabiat hodisalarini anglatuvchi	meteorologik, fenologik	shamol oqimlari, fasllar, tabiiy falokatlatning nomlari
6.	kosmik muhit, samoviy jismlar va ularning qismlari	samoviy jismlarining nomlari	astronimik, astrofizik, astrobotanik	kosmonimlar, astronimlar, astrotoponimlar
7.	vaqt bo'laklari	umume'tirof etilgan vaqt qismlari nomlari	fizik, tarixiy	xrononimlar
8.	bayramlar	umume'tirof etilgan bayramlar nomlari	ijtimoiy, tarixiy	bayramlarning atoqli otlari
9.	marosimlar, kampaniyalar	marosimlar nomlari	ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy	alohida marosim, kampaniyalar nomlari
10.	muassasa, jamoat, tashkilotlar	umume'tirof etilgan tashkilot, muassasa turlari	ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va b.k	muassasa, jamoat, tashkilotlarning atoqli otlari
11.	harakatlanish vositalari	umume'tirof etilgan transport nomlari	texnik, ishlab chiqarish, transport-iqtisodiy	paraxodlar, samolyotlar, ekspresslarning atoqli otlari
12.	san'at asarlari	umume'tirof etilgan san'at	adabiyotshunoslik, san'atshunoslik,	badiiy, musiqiy, sahnalashtirilgan,

		turlarining nomlari	musiqashunoslikka oid	kino,tasviriyl, haykaltaroshlik va b.k san'atlarning atoqli otlari
13.	matbuot	matbuot turlarining umume'tirof etilgan nomlari	poligrafik,ijtimoiy siyosiy,badiiy	matbuot organalarining nomlari
14.	hujjatlar, qonunlar	umume'tirof etilgan hujjat nomlari	ijtimoiy,iqtisodiy, siyosiy,tarixiy	dokumentonimlar
15.	ish qurollari	umume'tirof etilgan ish qurollari nomlari	hunarmanchilik, sanoat,savdoga oid	xrematonimlar
16.	tovarlar, mashinalar	umume'tirof etilgan tovar, mashina nomlari	tovarshunoslik, mashinashunoslikka oid	markalar,mahsulot turlari,tovar namunalarining atoqli otlari
17.	odamlarning tasavurlari natijasida paydo bo'lgan ob'yektlar	fantastik realiyalarning umumiy nomlari	adabiyotshunoslik, san'atshunoslikka oid,diniy,tarixiy	mifonimlar (demononimlar, mifotoponimlar, mifoxrematonim lar va b.k)
18.	tasavvurda mavjud,lekin isbotlanmagan ob'yektlar	gipotetik realiyalar	geologik,geografik, astronomik,biologik	gipotetik ob'yektlarning nomlari- gipotezionimlar

19.	Tasviriy, badiiy san'at ob'yektlari	Tasviriy, badiiy san'at asarlari qahramonlari va b.k	adabiyotshunoslik, san'atshunoslikka oid	tasviriviy san'at asarlari qo'llaniladigan ismlar-fiktonimlar ¹
-----	---	--	--	---

A.V.Superanskayaning tasnifini ko'rgazmali holda quyidagicha aks ettirish mumkin.



¹. "Общая теория имени собственного" А.В.Суперанская М.1973.,144-145bet

“Antroponimika” – onomastikaning bo`limi bo`lib, odamlarning ismlari, ularning targalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo`llanilishini va bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishini ham rivojlanishini o`rganadi.

Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba shaxsni atashlilikning turli usullarini “Antroponimika”ning manbai sifatida ko`rishimiz mumkin”.¹

Antroponimika tilshunoslikning bir bo`limi sifatida o`z navbatida 2ga bo`linadi:

-nazariy antroponimika;

-amaliy antroponimika;²

Nazariy antroponimika – antroponimlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, ularning strukturasi, antroponimik sistemalar, u yoki bu xalqning antroponimiya tarixini, tillarning antroponimika bilan ta`sirini o`rganadi.

Amaliy antroponimika esa ismlarning normasi bilan boq`liq muammolarni, bir ismning har xil tillarda qo`llanilishini o`rganadi va antroponimik lug`atlar tuzish bilan shug`ullanadi.

Antroponimik ma`lumotlar tilshunoslikning boshqa sohalari uchun, jamiyatshunoslik, etnografiya, xalqlarning tarixini o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

Rus olimasi O.S.Axmanovanning ta`rifiga ko`ra “Antroponim” – yunoncha “anthropos” -(odam) va “ onyma”-(ism), ya`ni kishilarning shaxsiy ismlari degan ma`noni anglatadi.³

¹ “O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, Davlat milliy nashriyoti, T., 2003

² www.wikipedia.ru

³ Axmanova O.C “Словарь лингвистических терминов” М., 1966

Antroponim – shaxsiy ism yoki bir necha shaxsiy ismlar yig`indisi bo`lib, insonlarni identifikatsiya qiladi.

Asosiy ilmiy manbalarda, jumladan ”Лингвистический энциклопедический словарь”da antroponim quyidagi turlarga bo`lingan:

- shaxsiy ismlar (tug`ilganda qo`yiladi);
- otasining ismi ;
- familiya(ism-sharif);
- laqab;
- taxallus;
- nisba;
- kriptonim (yashirin ismlar)
- badiiy asarlar, folklor, mif, ertaklar qahramonlarining ismlari;
- etnonimlar (xalqlar, millatlar, qabilalar) lardan kelib chiqqan ismlar;¹

Olib borilgan tahlil natijasida, biz ushbu tushunchani 2 xil ma`noda ya`ni tor ma`noda(faqatgina ismning o`zi),hamda keng ma`noda (ism,familiya, laqab,taxallusning birga kelishi) qo`lladik.

Antroponimlar faqatgina insonlarni nomlanishini bildirishiga qaramasdan, u ismlar kategoriyasining murakkab spektrini bildiradigan yagona ob`yektdir, bu esa, o`z navbatida madaniyat tarixi, insonlar psixologiyasi xususiyatlarini, an`analari va b.k bilan bog`liq.

¹. ”Лингвистический энциклопедический словарь” 2-издание, дополненное М. Большая Российская энциклопедия, 2002

Rus olimasi A.V.Superanskaya antroponimlar individual va guruhii antroponimlarga bo'lib tahlil qiladi.Unga ko'ra:

Individual antroponimlar shaxsni jamoadan ajratadi, guruhii antroponimlarga oidlari esa – u yoki bu belgilar asosida jamoalarga birlashtiradi.

Rus olimasi A.V.Superanskaya yuqoridagilarga qo'shimcha holda antroponimlarni mikro va makro kabi turlarga ham ajratadi.Uning tasnifiga tayangan holda o'zbek tili antroponimlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni ta'kidlash mumkin:

- Mikro antroponimlar- insonlarning individual xususiyatlarini bildiradigan ismlar hisoblanadi.Masalan: Shaxlo, Qahramon.
- Makro antroponimlarga ma'lum jamoalarning nomlarini kiritadi ya'ni oilalar urug'lar, sulolalar nomlari. ¹Masalan:Boburiylar,Temuriylar,Barlos va h.k.z

Antroponimikaning asosiy ob'yekti bo'lmish "ism"ga O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida quyidagicha ta'rif berilgan:

"Ism, ot – bolaning tug'ilganligi qayd etilayotganda unga beriladigan nom. Ism shaxslarni oila, avlod, mahalla, jamoa doirasida ajratishga imkon beradi. Odatda, chaqaloqqa ismni ota-onasi, qarindosh-urug', oiladagi keksa kishilar tanlaydilar. Qanday ism qo'yilishi estetik va etik tamoyillar, ism tanlovchilarning orzu-istaklari, tasavvur va dunyo qarashlari, milliy xususiyat va b. bilan bog'langandir.Ism qo'yishda dinning ta'siri, ayniqsa, kuchli bo'ldi.Xristianlik vujudga kelib, monoteistik dinga aylanganidan keyin bibliyadagi payg'ambarlarning ismlari jahondagi ko'pgina xalqlarda ommaviy ismlar bo'lib qoldi.Islom dinining tarqalishi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda bu din tushunchalari bilan bog'liq ismlarning ko'payishiga olib keldi. Xalqimiz Qur'oni Karimda tilga olingan Alloxning go'zal ismlarini,Muhammad (sav)ning

¹ . A.B.Суперанская"Общая теория имени собственного" М.,1973

nomlarini o'z farzandlariga qo'yishi rasm qildi. Xullas, har bir ism muayyan sabab bilan paydo bo'lib, o'zining tarixi, geografik tarqalishi, hududi va mazmuniga ega. Qadim-qadimdan ism qo'yishning turli rasm-rusum, udumlari saqlanib qolgan, chunki bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ldi, deb hisoblangan. Kishiga muvaffaqiyatli tanlangan ism uning taqdiri, hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi, ism odamning ruhiyatini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonishgan. Musulmon oilalarida bolaga ism qo'yish bilan bog'liq alohida marosim o'tkazib kelinadi".¹

Britaniya ensiklopediyasida qayd etilishicha, ismlar va ularni o'rganish ilmiy va tarixiy ahamiyatga molikdir va shu bilan birga katta qiziqish uyg'otadi. Ma'lum bo'lishicha, hatto ibtidoiy jamoa davrida ham odamlarning o'z ismlari mavjud bo'lgan toki ularni shu ismlar vositasida chaqirish va ularga murojaat qilish mumkin bo'lgan.

Hind olimi D.D.Sharma ism qo'yishning ahamiyati haqida so'z yuritarkan, donishmand Vrihaspatining fikriga tayangan holda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Ism nafaqat insonlarni bir-biridan farqlash (identifikatsiya qilish) uchun xizmat qiladi, balki shu ism egasiga hayotda omad, baxt, mashhurlik keltirish garovi bo'lib xizmat qiladi."²

Ismlarning identifikatsion (farqlash) funksiyasi munozarali masala hisoblanib, bu masala bo'yicha taniqli onomast olim B.A.Nikolov hind ismlarini nazarda tutgan holda quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Ism, farqlash uchun xizmat qiladi degan tushuncha aniqlik kiritishga muhtojdir: u nafaqat farqlaydi, balki o'zida ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi. Jumladan, "Tabaqalashgan jamiyatda ismlar ham toifalanish xususiyatiga ega. Bu ismlarning o'zida yoki uning doirasida qandaydir

¹ "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, T. 2002

² D.D.Sharma "The Panorama of Indian Anthroponomy" (an historical, socio-cultural and linguistic analysis of Indian personal names) New Delhi, India 2005

ijtimoiy belgilar mavjudligini bildirmaydi, balki ularning ijtimoiy xarakteri tarixiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq ekanligini anglatadi".¹Ushbu masala Hindiston xalqlari ismlari borasida alohida ahamiyat kasb etadi.Hind ismlari bilan shug'ullangan rus olimi A.N.Zubkov ushbu masalada quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Bir tomondan, ism berishning original tizimi ularning bir-biriga o'xshamasligi va takrorlanmasligi qonuniyatini izohlaydi. Bu o'z navbatida ismning farqlash(identifikatsiya) funksiyasini ko'rsatadi, boshqa tomondan esa hindistonliklarning shaxsiy ismlari insonning u yoki bu toifa yoki tabaqaga mansubligini ham bildirishi mumkin, bu esa ism o'zida ijtimoiy funksiyaga ega bo'lish hususiyatini ham aks ettirishi mumkin.

Hind antroponimikasining original va qiziqarli hususiyati ismlarning takrorlanmaslik darajasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Jumladan ,ularda bir-biriga to'la mos ismlarning soni juda kam miqdorni tashkil qiladi.

Hind ismlarining o'ziga hos yana bir hususiyati shundan iboratki,chaqaloq dunyoga kelganidan so'ng, mahalliy munajjim yoki ruhoniylar tomonidan unga shartli ravishda vaqtinchalik ism qo'yiladi.Bunda chaqaloqning tug'ilgan yili, oyi, sanasi, hafta kuni, tug'ilish vaqti , shuningdek tug'ilgan joyini , geografik koordinatalari ham inobatga olinadi.Bu borada munajjimlar tomonidan sayyoralarining o'sha paytdagi holatiga muvofiq taqvim asosida, tegishli jadvallar bo'yicha chaqaloqqa ismning asosiy komponentining birinchi bo'g'ini tavsiya etiladi.Shu tariqa, chaqaloqqa o'ziga xos bo'lgan takrorlanmas ism beriladi.

¹ А.Н.Зубков “Общие вопросы индийской антропонимике” Сб. “Учёные записки”М.,1971

II BOB

2.1.Etimologik tahlil

Leksikologiyaning etimologiya bo'limi so'zlarning kelib chiqishi tarixi masalalari bilan shug'ullanadi.Etimologiya so'zning har ikki tomonini ya'ni shakli va ma'nosini hisobga olib o'rganadi.¹

Hindiy tilida so'zlar an'anaviy kelib chiqishi jihatidan tatsama,tatbhava,deshiy va videshiy so'zlar guruhiga bo'linadi.Antroponimlar ham barcha so'zlar singari an'anaviy kelib chiqishga ega.Antroponimlarning etimologik tahlili asosan lug'atlarga shuningdek,D.D.Sharmaning "The Panorama of Indian Anthoponomy" va Maneka Ghandining "The Book of Hindu Names" asarlariga tayangan holda olib borildi.

1.Tatsama-sanskrit tilidan bevosita adabiy yo'l orqali o'zlashtirilgan va asosan tub o'z til so'zlari singari qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so'zlar bu guruhga kiradilar.Tatsama so'zi "huddi o'sha",boshqacha aytganda esa "sanskritdagidek" degan ma'noni anglatadi.

Hind antroponimlari orasida tatsama so'zlari asosan teofor ismlarga xos bo'lib hisoblandi.Bularga ilohlar,hudolar,ma'budalar,mifologik qahramonlar ismlari kiradi.Ushbu ismlar hozirgi kunda ham dastlabki shaklida o'zgarishsiz ishlatilib kelinadi.Ularning asosiy qismini hindu hudo va tangrilari,shuningdek, hind mifologiyasi hamda "Mahabharata","Ramayana" kabi epik asarlar qahramonlarining ismlari tashkil etadi.Ularning umumiy soni 117tani tashkil etadi va etimologik tahlil uchun tanlangan umumiy antroponimlarning 66%tashkil etadi.

2.Tadbhava- uzoq davom etgan tarixiy jarayon mobaynida tovush o'zgarishlariga duch kelgan so'zlar bo'lib ular hindiy tili so'z boyligining asosiy qismini tashkil qiladi.Bunday o'zgarishlar prakrit ,pali va apabxransha bosqichlaridan o'tib

¹M.T. Irisqulov "Tilshunoslikka kirish" T.,2009 96-6

hozirgi hindiy tili tarkibiga kirish jarayonida yuz bergan va bu hodisa barcha hind oriy tillariga tegishlidir. Bunday so'zlar Sanskrit tilidan kelib chiqqan deb tan olinishiga ko'ra, "tadbhava" ya'ni "undan paydo bo'lgan" deb ataladi.

Tadbhava so'zlari hindiy tili lug'at tarkibining asosiy qismini tashkil qilishiga qaramasdan tahlilimiz natijasida antroponimlar alohida xususiyatga ega bo'lib, ular nisbatan kamchilikni tashkil etishi aniqlandi. Ularning umumiy soni 8tani tashkil etdi (4,5%). Bu esa antroponimlarning lug'at boyligi doirasida konservativlik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

Tatsama	Tadbhava
<i>Krishna</i>	<i>Kisan</i>
<i>Surya</i>	<i>Suraj</i>
<i>Laxmi</i>	<i>Lakhmi</i>
	<i>Lachhmi</i>
<i>Vishnu</i>	<i>Bisan</i>
<i>Buddha</i>	<i>Budhuwa</i>
<i>Chandra Shekhar</i>	<i>Chand Ram</i>
<i>Harish Chandra</i>	<i>Hariya</i>

3. Deshiy- yoki deshaj ya'ni "mahalliy" so'zlar asosan sanskrit bilan taqqoslaganda bu til tizimiga yot bo'lib, ba'zilar dravid va munda sarchashmalari, qolganlari esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan so'zlardir.

Hindu ismlari orasida deshiy so'zlarini aniqlash o'ta qiyin bo'lganligi sababli ushbu masala alohida tadqiqotni talab etadi. Chunki bunday ismlar asosan Hindistonning tub aholisi ya'ni aboriginlarga xos bo'lib ularning qay darajada hindu mashabiga tegishli ekanligini aniqlash alohida muammo bo'lib hisoblanadi.

4.**Videshiy**- so'zlari deyilganda esa hindiy tiliga arab,fors,ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar kiradi.¹

Bizda mavjud manbalarda videshiy so'zlari yordamida yasalgan ismlar umumhind antroponimlari doirasiga kiradi.Shu sababli ulardan hindu antroponimlariga tegishli ismlarni ajratib tahlil qilish alohida tadqiqotni talab etadi.Shuni hisobga olgan holda ushbu mavzu doirasida umumhind antroponimlariga tegishli ismlar tahlil qilindi.Shunga ko'ra to'plangan antroponimlarning 54tasi ya'ni 30% i videshiy so'zlari bo'lib,biz ularni 3 guruhga ajratib o'rgandik:

1-guruh.Fors-arab o'zlashma antroponimlar.Ularning umumiy soni 34 ta (64,1%).

Masalan:*Iqbal,Bahadur,Faqir,Pervez,Khushboo,Feroz* va b.k

2-guruh.Ingliz o'zlashma antroponimlar.Bularning umumiy soni 14 tani (26,4%) tashkil etdi.

Masalan: *Lisa,Sonia,Careena,Sweety,Allan,Rosy* va b.k

3-guruh.Hind olimi D.D.Sharma hind antroponimlari orasida slavyan tillaridan kirgan o'zlashmalar borligi ham borligi haqida ma'lumot beradi.Ularning soni 6 tani tashkil etdi(11,3%).²

Masalan: *Tito,Natasha,Nikita,Svetlana,Pushkin*

Etimologik jihatdan tahlil qilish natijasida shunday hulosalar qilish mumkinki,miqdor jihatdan hindu antroponimlarining asosiy qismini(66%)tatsama so'zlari tashkil qiladi.Bu esa etimologik jihatdan hindu antroponimlari konservativlik hususiyatiga

¹ O.N .Shomatov"Janubiy Osiyo tillariga kirish" T.,2003

² D.D.Sharma "The Panorama of Indian Anthroponomy"(an historical,socio-cultural and linguistic analysis of Indian personal names) New Delhi,India 2005

ega ekanligini ko'rsatadi. Tadbhava so'zlari esa miqdoran kamchilikni tashkil etdi. Ular umumiy materialning 4,5%ini tashkil etdi. Videshya so'zlar guruhiga esa arab-fors,slavyan,ingliz o'zlashmalari kiritildi. ularning umumiy soni 54tani ya'ni to'plangan antroponimlarning 30%ini tashkil etdi.

2.2.Strukturaviy tahlil

Rus olimi A.N.Zubkov hind antroponimikasi bilan shug'ullanar ekan,ularning tuzilishi,strukturasi borasida quyida fikrlarni bayon etadi.”Shaxsiy ismning komponentlari (agarda u bir komponentdan iborat bo`lmasa) bir-biri bilan tegishli munosabatda bo`ladilar, aks holda ular bir butunlikni tashkil qilmas edilar¹. Ushbu hodisaga aniqlik kiritish uchun ism strukturasi o`ziga xos xususiyatlarini umumiy tarzda ko`rib chiqish kerak. Hind antroponimikasiga uch komponentli struktura xos ekanligi ko`zga tashlanadi.Ularda familiya va otasining ismi kabi ko`rsatkichlar mavjud emas.

A.V.Superanskayaning yozishicha, bu miqdor insonning operativ xotirasi hajmi bilan belgilanadi”.²

A.N.Zubkovning ta`kidlashiga ko`ra hind uch a`zoli antroponimi – **asosiy,oraliq(neytral) va qo`shimcha komponent**larga bo`linishi mumkin.<sup>3</sup> Asosiy komponent “*rashi*”<sup>4</sup>,ya`ni bolaga ism qo`yishda foydalaniladigan munajjim- brahman tomonidan tuzilgan maxsus jadval harflaridan boshlangan ismning birinchi bilan qismi nazarda tutiladi. Ismning ikkinchi qismi bolaga otana tomonidan erkin tarzda beriladi va u ismning “oraliq (neytral) komponent”i hisoblanadi, ayrim hollarda unda oilaning u yoki bu diniy mazxabga mansubligi ma`lum bo`ladi. Masalan: shiva mazxabi vakillari ba`zan oraliq komponent sifatida farzandlariga “*Prasad-tuxfa, hadiya*” nomini berishadi. (m-n:*Ram Prasad*). Lekin ko`p hollarda oraliq yoki neytral komponent erkak va ayol jinslarini farqlash uchun hizmat qiladigan formal leksik ko`rsatkich funksiyasini bajaradi. Erkak jinsiga

¹ А.Н.Зубков «Общие вопросы индийской антропонимике» Сб. Учёные записки» М.,1971

² А.В.Суперанская.”Структура имени собственного” (Фонология и Морфология).М.,1969,стр.51.

³ А.Н.Зубков “Общие вопросы индийской антропонимике” Сб. “Учёные записки” М.,1971

⁴ Bolaga ism qo`yishdan avval munajjim,brahman tomonidan tuziladigan jadval.

mansub shaxslar uchun ko'pincha oraliq komponent vazifasini –“*Kumar*”-bola, o'g'il, o'spirin, “*Nath*”-xo'jayin, er ma'nosiga ega bo'ladi, ayol jinsiga mansub shaxslar uchun esa “*Kumari*” -qiz bola, qiz yoki “*Rani*”-malika, qirolicha” ma'nosiga ega ism komponentlari ishlatiladi. Masalan: *Ram Kumar* -erkak ismi va *Ram Kumari* esa ayollar ismi va h.z.

Va nihoyat ism egasining u yoki bu tabaqa mansubligini ko'rsatuvchi ismning uchinchi qismini “**qo'shimcha komponent**” deb atash mumkin. Masalan: *Ram Kumar Arora*. “*Arora*” so'zi Shimoliy Hindistondagi savdogarlar tabaqasi a'zosini bildiradi. Yoki *Surendr Nath Shrivastav*. “*Shrivastav*” so'zi – xattotlar kastasi, tabaqasi a'zosi.

Ko'pincha g'arb mamlakatlarida, g'arbiy antroponimika qismlari analogiyasi bo'yicha, xindular ismlarining uchinchi qismi yoki qo'shimcha komponenti familiya tarzida qabul qilinadi. Lekin ismshunos olimlar bu tasavvur noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar.

A.N.Zubkovning ta'kidlashicha, “familiya” – irsiy ismlarning biri bo'lib, ajdodiy umumiylikni bildirsa ham, biroq hind antroponimikasida “familiya” o'z ijtimoiy funksiyalarini allaqachon yo'qotgan, hind ismlaridagi qo'shimcha komponenti esa bu funktsiyani qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha bajarib kelmoqda.¹

Hindlarda familiyaning yoq'ligini isbotlab beruvchi ikkinchi fakt shundan iboratki, ko'p hindistonliklar o'z ismining uchinchi qismi bilan erkin muomalada bo'lib, uni tushirib qoldirishadi. Ayniqsa, kastachilik tizimi bekor qilinishi natijasida so'nggi paytlarda Hindiston respublikasida ijtimoiy munosabatlar tubdan o'zgarib bormoqda. Shu sababli hozirgi paytda hindlar orasida o'z xohishi bilan rasmiy hujjatlarda ham ismning uchinchi komponentini ko'rsatishdan voz kechayotgan odamlarni ko'plab uchratish mumkin, chunki ushbu komponentning ism egasini qaysu tabaqaga mansub ekanligini ko'rsatib turishi ijtimoiy tenglik

¹ А.Н.Зубков “Общие вопросы индийской антропонимике”Сб. “Учёные записки” М.,1971

tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Bu hollarda ismning uchinchi komponenti ism egasining faqat yaqin qarindoshlariga ma'lum bo'ladi. Bir qator mamlakatlarda familiyalar rasmiy hujjatlarda ko'rsatilishi majburiydir. Hindistonda esa uchinchi komponent mavjud bo'lmagan hollarda ismning ijtimoiy funksiyasi yo'qoladi, biroq qolgan ikki component ismlarning farqlovchi yoki differensiallovchi funksiyasini bajarishda davom etadi.

Lekin, ayrim hollarda xatto yuqori tabaqa, yoki mansabdor shaxslar tomonidan ham ismlarning uchinchi komponenti tushirib qoldirilishi mumkin. Bunday hollarda ism egalari o'zlarini ijtimoiy jihatdan quyi toifadagi insonlardan ajratib ko'rsatmaslik uchun ham shunday qilishlari mumkin.

A.N.Zubkov Hindistonda familiya ko'rsatgichining yo'qligini isbotlovchi yana bir misol tariqasida ushbu mamlakatda ismlar ro'yhatini tuzishda hindiy alfavitiga tayanilishini ta'kidlaydi. Ularni tuzishda, ismning birinchi asosiy komponenti asos qilib olinadi, masalan:

Amaar Nath Rastogi

Om Prakaash Sharma

Umesh Prasaad Shrivastav

Ram Chandra Singh va b.k

Hind onomast olimi D.D.Sharmaning tasnifiga tayangan holda, hindu antroponimlarining strukturaviy tahliliga asosan teofor ismlar jalb qilindi va ular **2, 3, 4 komponentli antroponimlarga** ajratib tahlil qilindi. Apelyativ ismlar esa alohida keng miqyosli tadqiqotni talab qilgani, shuningdek mavjud imkoniyatlarning cheklanganligi sababli ushbu tahlilga kiritilmadi. Tahlil natijasida hindu teofor antroponimlarining asosiy qismi **2 komponentli** bo'lib, ularning umumiy soni 313tani ya'ni umumiy miqdorning 92,3% ini tashkil qildi.

Strukturaviy jihatdan ular quyidagi guruhlarga bo'lindi:

1-guruh. *Ism+ Kumar,Pati,Prasad,Datt, Nath,Charan,Sharan,Das, Prakash,Chandra,Svarup,Kant,Ballabh,Narayan,Nandan,Dhar*

Masalan: *Durgadas*

Shivanath

Vishnukant

2-guruh. Muqaddas daryo nomlari + *Datt, Nath, Kant, Prasad,Ballabh,Charan,Sharan,Nandan,Das*

Masalan: *Ganga Datt*

Jamna Das

Saraswati Sharan

3-guruh. Ayol ilohlar+ularning turmush o'rtog'ining ismi

Masalan: *Sita Ram*

Radha Krishna

Lakshmi Narayan

4-guruh. Turli ilohlarning nomlarining birga kelishi:

Masalan: *Vishnu Shankar*

Ram Mohan

Chandra Mohan

5-guruh. Sinonimik kombinatsiyali antroponimlar

Shiva Shankar

Govind Gopal

Vishnu Hari

Teofor ismlar orasida miqdor jihatdan keyingi o'rinda **3 komponentli** antroponimlar turadi. Tahlilimiz natijasida ularning soni 22tani tashkil etib, umumiy miqdorning 6,4%ga tengdir. Misol qilib ko'rsatish mumkin:

Shiva Rama Krishan

Hari Hara Narayan

Indra Narayan Tivari

Om Prakash Sharma

Girja Shankar Pandeya

Gopal Shankar Nigam

Jagdish Sharan Sharma

Naresh Chandra Shrivastav

Teofor ismlar orasida **4 komponentli** ismlar juda ozchilikni tashkil etib, ularning umumiy soni 4taga teng bo'lib, umumiy miqdorning atigi 1,2%ni tashkil qildi. Ular:

Vishna Nath Pratap Singh

Jaya Prakash Narayan Singh

Raghu Vamsha Prasad Singh

Chandreshwar Prasad Narayan Singh

Bundan tashqari hind antroponimlari orasida gibril antroponimlarni ham uchratish mumkin.. "Gibril"-lotincha so'z bo'lib, "hibrida"- "chatishma" deb

tarjima qilinadi. Tilshunoslikda esa gibril yoki chatishma deb etimologik jihatdan turli xil tillardan yasalgan soʻzlarga aytiladi.

Tahlilimiz natijasida hindu ismlari orasida gibril antroponimlar soni juda ozchilikni, yaʼni 5 tani tashkil etdi. Ular quyidagilardir:

Robin Singh

Allan Das

Tom Singh

Bobby Jindal

Jacky Randhawa

Ushbu hodisa hindu antroponimlari oʻziga xos konservativ xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hind antroponimikasida ayrim ilohlar ismlari yordamida tuzilgan teofor antroponimlar ham mavjud boʻlib, ularni shartli ravishda hosilaviy antroponimlar deb atash mumkin. Ularning umumiy soni 313tadir. Hosilaviy teofor antroponimlar komponentlari orasida 31ta ilohlar ismlari qatnashgan boʻlib, ularning samaradorlik darajasi quyidagichadir:

1) **Ram** ilohi bilan bogʻliq antroponimlar eng samarali hisoblanib, ular 89tani tashkil etadi va umumiy miqdorning 28%iga tengdir.

2) Miqdor jihatdan keyingi oʻrinda esa **Shiva** ilohi bilan bogʻliq antroponimlar boʻlib, ular 24tani tashkil etdi, umumiy miqdorning 7%ini tashkil etadi.

3) **Hari** ilohi bilan bogʻliq boʻlgan antroponimlarning umumiy soni 14ta teng boʻlib, umumiy miqdorning 4,5% tashkil etadi.

4)Eng kam uchraydigan antroponimlar deb, ***Keshava,Revati,Saraswati,Maithili*** ilohlari bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy antroponimlar deb topildi.Ularning umumiy ko'rsatkichi 0,9% tashkil etdi.

2.3. Hind antroponimlarining tematik tahlili

Mazkur bo'lim to'plangan antroponimlarni ularning ichki mazmuniga asoslangan holda tasniflashga bag'ishlanadi. Asosiy manba sifatida hind olimi D.D.Sharmaning "The Panorama of Indian Anthoroponomy" asariga tayanildi. Ushbu tahlil to'plangan antroponimlarning ma'nosini va ularning qanday guruhga tegishli ekanligiga aniqlik kiritadi.

Rus tilshunos olimi A.N.Zubkov o'zining hind antroponimlariga bag'ishlangan maqolasida barcha hindu shaxsiy ismlarini tematik jihatdan 2 asosiy guruhga ajratadi:

1. Teofor ismlar:

2. Apelyativ ismlar

Unga ko'ra teofor ismlarning tarkibiga turli ilohlar, ma'bud va ma'budalar, podshohlar va qadimiy epik asarlar qahramonlarining ismlari kiradi. A.N.Zubkovning fikricha, Hindiston ko'p dinlik mamlakat ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, shaxsiy ismlar tarkibiga qanchadan qancha xudolar ismlari kirganligini tasavvur qilish mumkin.¹

Ushbu tasnif bo'yicha tahlil qilish natijasida hindu antroponimlarining asosiy qismi teofor ismlar guruhiga kirishi aniqlandi.

Ularning umumiy soni 117tani tashkil etdi va umumiy materiallning 49%ini tashkil etdi. Hind olimi D.D.Sharma teofor ismlarni tematik tahlil doirasida erkak va ayol ismlari turkumiga bo'ldi.

Tahlilimiz natijasida teofor ismlarning 87tasi ya'ni 74%ini erkaklarga xos bo'lgan teofor ismlar tashkil qildi. Ulardan eng keng yoyilganlari:

Raam, Krishna, Shiva, Vishnu, Indra kabi ismlar.


¹ A.Н.Зубков "Общие вопросы индийской антропонимике" Сб. "Учёные записки" М., 1971

Ayollarga xos teofor ismlar umumiy to'plangan teofor ismlarning 26%ini tashkil etib,son jihatidan 30 ga teng bo'ldi.Ular orasida eng keng yoyilganlari:

Sarasvati,Durga,Nandaa,Sunandaa,Siita,Sumitra,Draupadi Raadha.

kabi ismlar.

Shunday qilib,to'plangan teofor ismlarning umumiy soni 117taga teng bo'lib shulardan 87tasi erkaklarga,30tasi ayollarga hos ismlardir.Quyidagi diagrammada teofor ismlarning biz aniqlagan ko'rsatkichlarini ko'rishingiz mumkin.



A.N.Zubkovning ta'kidlashicha *apelyativ ismlar* turdosh ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan apelyativ ismlar quyidagi turlarga bo'linib tahlil qilindi:

Erkaklarga hos apelyativ ismlar

Qimmatbaho toshlar va metall nomlari bilan bog'liq ismlar

1.*Javaahar* - javohir

2.*Hiira*- olmos

- 3.*Moti* - marvarid
- 4.*Panna* - zumrad
- 5.*Mani* - qimmatbaho tosh
- 6.*Maanik* - yoqut
- 7.*Rataan* - qimmatbaho tosh
- 8.*Laal* - la'l
- 9.*Kanstubha* - qimmatbaho tosh
- 10.*Hem* - oltin
- 11.*Swarn* - oltin
- 12.*Kundan* - ishlov berilgan oltin
- 13.*Rajat* - kumush

Tabiat hodisalari bilan bog'liq ismlar:

- 1.*Prakaash* - yorug'lik
- 2.*Prabhaat* - tong
- 3.*Pratyush* - tongotar
- 4.*Tusaar* - shudring
- 5.*Neehar* - tuman
- 6.*Baada l* - bulut
- 7.*Akaash* - osmon
- 8.*Parvat* - tog'
- 9.*Saagar* - dengiz

O'simliklar olami bilan bog'liq ismlar:

- 1.Chandal - sandal
- 2.Bakul - daraxt nomi
- 3.Shirish - daraxt nomi
- 4.Kexar - zafaron
- 5.Vipin - o'rmon
- 6.Indivar - nilufar
- 7.Aravind - nilufar
- 8.Kamal - nilufar
- 9.Pankaj - nilufar
- 10.Ambuj - nilufar
- 11.Utpul - nilufar
- 12.Neelotpal - nilufar

Qushlar nomi bilan bog'liq:

- 1.Totaraam
- 2.Shukdev
- 3.Popatlaal


Hayvonlar epiteti bilan bog'liq ismlar:

- 1.Shersingh - arslon,sher
- 2.Gajraaj - fil bilan bog'liq bo'lgan ism
- 3.Gajendra - fil bilan bog'liq bo'lgan ism

Erkaklarga xos bo'lgan apelyativ ismlarning tematik tahlil natijalari jadvali

<i>Apelyativ ismlarning ma'nosiga ko'ra guruhlar</i>	<i>Ismlarning soni</i>	<i>% ko'rsakichi</i>
Qimmatbaho toshlar va metall nomlari bilan bog'liq ismlar	13	29%
Tabiat hodisalari bilan bog'liq ismlar	9	20%
O'simliklar olami bilan bog'liq ismlar	12	27%
Hayvonlar bilan bog'liq ismlar	11	24%
	Jami to'plangan apelyativ ismlar soni:45 ta	

Ushbu tahlil jarayonida to'plangan erkaklarga xos bo'lgan apelyativ ismlar orasida qimmatbaho toshlar va metall nomlari bilan bog'liq ismlar ko'pchilikni tashkil etdi ular umumiy materialning 29%ini tashkil etdi,ikkinchi o'rinni esa o'simliklar olami bilan bog'liq ismlar tashkil etdi,ularning umumiy foiz ko'rsatgichi 27%ni tashkil etdi,ular orasida nilufar guli ma'nosida keluvchi ismlarning samaradorligi kuzatildi.



Tahlil jarayonida to'plangan materialning 62% ini ayollarga xos bo'lgan apelyativ ismlar tashkil etib ularning umumiy soni 75taga teng. Ular orasida eng mahsuldor guruh bu o'simlik dunyosi bilan bog'liq ismlar bo'lib, ular orasida Hindistonning milliy ramzlaridan nilufar guli ma'nosida kelgan ismlar ko'pchilikni tashkil etadi (8ta). Bunday ismlar to'plangan materialning deyarli 47% ini tashkil etib eng samarador hisoblandi.

O'simlik dunyosi va gullar bilan bog'liq ismlar:

1. Lata - *chirmovuq*
2. Latika - *chirmashib o'sadigan o'simlik*
3. Juhi - *yasmin guli*
4. Juthika - *yasmin guli*
5. Pushpa - *gul*
6. Kusum - *gul*

- 7.Suman - *gul*
- 8.Madhubaala - *yasminlar turiga kiruvchi hushbo'y hidli gul*
- 9.Mallika - *yasmin o'xshaydigan gul*
- 10.Saroja - *nilufar*
- 11.Neeraja- *nilufar*
- 12.Padma - *nilufar*
- 13.Padmini- *nilufar*
- 14.Sarojini - *nilufar*
- 15.Kumudini -*oq nilufar*
- 16.Kumud - *oq nilufar*
- 17.Pankhudi -*gul bargi*
- 18.Suparna - *gul bargi*
- 19.Parag - *gul shirasi*
- 21.Bela - *gullaydigan,chirmashib o'sadigan o'simlik*
- 23.Mrinal - *nilufar*
- 24.Kopal - *gul bargi*
- 25.Maala -*gulchambar*
- 26.Vritali -*chirmashib o'sadigan o'simlik turi*
- 27.Kaanan - *o'rmon*
- 28.Vahali - *daraxt turi*
- 29.Chameli -*yasmin gulining bir turi*

30. Vanalata - *chirmovuq*

Qushlar nomi bilan bog'liq bo'lgan ismlar:

1. Kokila - *kakku*
2. Sariika - *mayna*
3. Hansi/Hansa - *oqqush*
4. Chakori - *kaklik*
5. Mayuri - *tovus*

Hayvon va qushlarga, hamda ularning harakatlariga o'xshatish natijasida yuzaga kelgan ismlar:

6. Gajagaamini - *sollanib(fildek) yuruvchi*
7. Mriganayani - *ohu ko'zli*
8. Mrigaakshi - *ohu ko'zli*
9. Hansapadika - *oqqush kabi viqor bilan yuruvchi*
10. Meenaakshi - *shaxlo(baliq) ko'z*

Tabiat hodisalari bilan bog'liq ismlar:

1. Usha- *sahar*
2. Sandhya - *shom*
3. Nisha - *tun*
4. Vidyut - *chaqmoq, elektr*
5. Rajanii- *tun*
6. Yaaminii- *tun*
7. Lahar - *to'lqin*
8. Kallol - *suvda mavjlanuvchi*
9. Jharna - *sharshara*
10. Taranga - *suv to'lqini*
11. Sharvatii - *tun*
12. Neehaarika - *tuman*


13. Neera- *suv*
14. Vasanthakumari - *bahor qizi*
15. Vasantiidevi- *bahor malikasi*
16. Varsharani - *yomg'ir mavsumi malikasi*

Qimmatbaho tosh va metal nomlari bilan bo'lgan ismlar:


1. Hiira- *olmos*
2. Mukta- *marvarid*
3. Neelam - *sapfir*
4. Meena - *havo rangli qimmatbaho tosh*
5. Hema - *oltin*
6. Kanchan- *oltin*
7. Hemaangii - *oltinga o'xshagan qimmatbaho metal*
8. Ruubi - *yoqut*
9. Ratna - *qimmatbaho tosh*
10. Manika -*yoqut*

Ayollarga xos bo'lgan apelyativ ismlarning tematik tahlil natijalari jadvali

<i>Apelyativ ismlarning ma'nosiga ko'ra guruhlari</i>	<i>Ismlarning soni</i>	<i>% ko'rsakichi</i>
O'simlik dunyosi bilan bog'liq ismlar	35	47%
Hayvonot olami bilan bog'liq ismlar	11	17%
Tabiat hodisalari bilan bog'liq ismlar	15	20%
Qimmatbaho tosh va metallar bilan bog'liq bo'lgan ismlar	14	19%
	Jami to'plangan apelyativ ismlar soni:75	



Olib borilgan kuzatuvlarga hulosalar tarzida shuni ta'kidlash mumkinki, biz to'plagan ayollar va erkaklarga xos bo'lgan apelyativ ismlarning umumiy soni 120tani tashkil etib, ulardan 45tasi ya'ni 38%ini erkaklar, 75tasi ya'ni 62%ini ayollar ismlari tashkil etdi, ichki mazmuniga ko'ra barcha antroponimlar 4 ta asosiy tematik guruhga bo'lib o'rganildi va quyidagicha qiyoslandi:



Xulosa

1. Hind antroponimikasi o'ziga hos murakkab hususiyatlarga ega bo'lib, boshqa antroponimik tizimlardan ichida ajralib turadi. Jumladan shuni ta'kidlash joizki, hindistonliklar tasavvurida "ism"-hayotda omad, baxt, mansab, mashhurlik keltiruvchi vosita bo'lib hizmat qiladi.
2. Hindu ismlarining asosiy hususiyati shundaki, ular orasida takrorlanmaslik darajasi ancha yuqoridir.
3. Hind antroponimlari nafaqat identifikatsion (farqlash) funksiyasini bajaradi, balki insonning u yoki bu toifaga mansubligini, ya'ni ijtimoiy funksiyani ham bajarishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.
4. Hind antroponimikasining o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri-bu hindular uchun ism berish marosimi alohida tarixiy an'anaga egadir.
5. Hind antroponimlarining etimologik tahlilidan ma'lum bo'lishicha, tatsama so'zlari miqdor jihatdan asosiy o'rinni egallaydi. Tatsama so'zlariga tegishli antroponimlar orasida teofor ismlar ya'ni turli ilohlar, ma'bud va ma'budalarning, podshohlar, epik qahramonlarning ismlari ko'pchilikni tashkil etadi va ular umumiy antroponimlarning 66% tashkil etadi. Bu esa hindu antroponimlari tarixiy rivojlanish jarayonida konservativ hususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Hindu ismlari orasida deshiy hamda videshiy so'zlari turli xil mazxab vakillariga tegishli bo'lganligi sababli ularni etimologik jihatdan o'rganish alohida tadqiqotni talab etadi.
6. Strukturaviy tahlil natijasida hindu antroponimlarining asosiy qismi ya'ni 92,3%i 2 komponentli antroponimlarni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Komponentlar strukturaviy jihatidan eng kam uchraydigan antroponimlar 4 komponentli ismlar bo'lib ular bor -yo'g'i 1,2% (4ta)ni tashkil etadi.

7. Hind olimi D.D.Sharmaning tematik tasnifi bo'yicha teofor ismlar 2 guruhga bo'lib tahlil qilindi.Ulardan birinchisi erkaklarga xos bo'lgan teofor ismlar bo'lib ular umumiy miqdor(117)dan 74%ini ya'ni 87tani tashkil etdi.Ikkinchisi esa ayollarga xos bo'lgan teofor ismlar bo'lib,ular umumiy miqdordan 26% ya'ni 30tani tashkil etadi.

8. Tematik jihatdan apelyativ antroponimlar ham erkak va ayol ismlari guruhlariga bo'lib tahlil qilindi va uning natijasida ayollarga hos ismlar o'rtasida eng mahsuldor guruh o'simlik dunyosi bilan bog'liq ismlar deb topildi, ularning umumiy soni 35ta ya'ni 47%ni tashkil etdi. Erkaklarga hos ismlar o'rtasida esa qimmatbaho toshlar va metall nomlari bilan bog'liq ismlar ko'pchilikni tashkil etdi, ularning umumiy soni 13ta ya'ni 29%ga tengdir.

9. Ushbu mavzu bo'yicha kelgusi ishlarda hind antroponimlarini keng ma'noda ya'ni turli mazxablar, ijtimoiy tabaqalar, hamda hududiy jihatdan tadqiq qilish hamda ularni o'zbek tili antroponimikasi bilan qiyoslab o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Prezident I.A.Karimov asarlari:

- 1.1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997.
- 1.2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, T.: “Ma’naviyat”, 2008
- 1.3. Karimov I.A “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.”Vatanparvar” gazetasi №8(2447),T.,2012

2.Maqolalar,ilmiy monografiyalar va boshqa asarlar:

- 2.1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - T.: O‘qituvchi, 1996
- 2.2.Бархударов А.С. Словообразование в хинди. –М.: Просвещение, 1963
- 2.3.Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986
- 2.4.Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va adabiy stil. –T.: Fan, 1988.
- 2.5.Флоренский А .В “Имена” М.,1578
- 2.6.Ghandi Maneka “The book of Hindu Names” New Delhi,India 1993
- 2.7.Irisqulov M.T “Tilshunoslikka kirish” T.,2009 96-6
- 2.8.Mehrotra R.R “The book of Indian Names” New Delhi,India 1994
- 2.9.Rupa N.D “Hindi Personal Names and Nicknames” New Delhi,India 1994
- 2.10.Суперанская А.В.”Структура имени собственного” (Фонология и Морфология) М.,1969
- 2.11.G’afurov O.,Asma ul-husna yohud tabarruk ismlar,1-2 qism,T.,1998

2.12. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, Davlat milliy nashriyoti, T.2002

2.13. Shomatov O.N”Janubiy Osiyo tillariga kirish” T.,2003

3.Asosiy manbalar:

3.1.Sharma D.D “The Panorama of Indian Anthroponomy”(an historical,socio-cultural and lingvistic analysis of Indian personal names) New Delhi,India 2005

3.2.Зубков А.Н “Общие вопросы индийской антропонимике” Сб. “Учёные записки” М.,1971

3.3.Суперанская А.В.”Общая теория имени собственного” М.,1973

3.4.Begmatov E.A.O‘zbek ismlari ma’nosi,T.,1998

4.Lug‘atlar:

4.1. Ахманова О.С “Словарь лингвистических терминов” М.,1966

4.2.“Лингвистический энциклопедический словарь” 2-издание, дополненное М. Большая Российская энциклопедия, 2002

4.3.Русско - хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957

4.4.Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Вескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I. -М.: Советская Энциклопедия, 1972

4.5.Ульциферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. -М.: Изд. Русский язык медиа, 2004

4.6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. II tom. – М., 1981

4.7.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -T.: Fan, 2002.

5. Internet sahifalari:

- 5.1. www.filologia.ru
- 5.2. www.indialanguages.com
- 5.3. www.ru.wikipedia.org.
- 5.4. www.tsil.uz.ziyo
- 5.5. www.indianlanguages.com
- 5.6. www.india.com